

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UMAROV ELDOR DO'SYAROVICH**

**MUSTAQIL TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VOSITASIDA BO'LAJAK  
LOGOPEDLARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH METODIKASI**

**13.00.03 –Maxsus pedagogika**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Umarov Eldor Do'syarovich**

Mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash metodikasi.....3

**Умаров Элдор Дусярович**

Методика подготовки будущих логопедов к инклюзивному обучению посредством цифровизации самостоятельного образования.....21

**Umarov Eldor Dusyarovich**

Methodology for preparing future speech therapists for inclusive education through the digitalization of independent learning.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UMAROV ELDOR DO'SYAROVICH**

**MUSTAQIL TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VOSITASIDA BO'LAJAK  
LOGOPEDLARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH METODIKASI**

**13.00.03 –Maxsus pedagogika**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10433 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([yangi.cspu.uz/uz](http://yangi.cspu.uz/uz) ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Usarov Jabbor Eshbekovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Abdullayeva Gavhar Saparovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Jo‘raxo‘jayev Muhammadaziz Xalilxo‘ja o‘g‘li**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: [tvchdpi@cspu.uz](mailto:tvchdpi@cspu.uz))

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712- 45-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.U.Qodirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., (DSc), professor

**I.D.Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

**D.O.Ximmataliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi p.f.d., (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish va amalga oshirishda talabalar mustaqil ta'limini raqamlashtirish, ularda hayotiy ko'nikmalarni mustaqil faoliyat asosida rivojlantirishga doir didaktik ta'minotni takomillashtirish, "komputing" (computing) ta'limi bo'yicha milliy o'quv dasturlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mustaqil ta'lim asosida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda psixologik-pedagogik xavflarga moslashuvchan interaktiv didaktik vositalarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchi shaxsga yo'naltirilgan individual va defferensiyalashgan o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash muhim ustuvorlik kasb etadi. AQSh, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlar tajribasi inklyuziv ta'lim muhitida faoliyat yurituvchi kadrlarni dasturli texnologiyalar asosida kasbiy tayyorlashni rivojlantirib borish muhimligini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida raqamli kompetensiyalarini shakllantirish amaliyotini keng joriy etish muhimligini ko'rsatadi.

Dunyo miqyosida inklyuziv va maxsus ta'lim mazmunini takomillashtirish va bu jarayonda pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta'lim oluvchilar individual xususiyatlariga mos adaptiv qo'llash, bo'lajak logopedlarning axborot madaniyatini shakllantirish, mustaqil ta'limni modernizatsiyalashga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy raqamli dunyoda o'z-o'zini rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi informatik fikrlash (Computational Thinking)ni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish, mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash metodikasini, ayniqsa, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga talabalarni tayyorlashning didaktik tizimini takomillashtirish dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda inklyuziv ta'limni joriy etish hamda bo'lajak mutaxassislarini bu jarayonga kognitiv, metodik, psixologik jihatdan tayyorlash sifatini oshirish maqsadida o'quv-uslubiy resurslarni adaptivlashtirish va o'quv muhitini raqamlashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Umumta'lim muassasalarida nogiron bolalarni tarbiyalash uchun zarur sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish bilan imkoniyati cheklangan har bir bolani inklyuziv ta'lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish"<sup>1</sup> ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa, bo'lajak logopedlarda kasbiy va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik va metodik xususiyatlarini aniqlashtirishni, mustaqil ta'limni amaliy yo'naltirilgan raqamlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

to'g'risida"<sup>2</sup>, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi<sup>3</sup> Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish G.Axmedova, B.Mirzahmedov, S.Qahharovlar, O'.Tolipov, J.Tolipova, M.Usmonboyeva ta'limni raqamlashtirishning didaktik-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish G.Abdullayevalar, A.Ashirova, U.Begimqulov, R.Boqiyev, mustaqil o'quv jarayonini tashkil etish masalalari F.Anarbayeva, A.Maxmudov, M.Maxmudova, R.Djurayev, N.Sayidahmedovlar maxsus ta'lim sohasida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-pedagogik aspektlari hamda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning korreksion-didaktik texnologiyalarini ishlab chiqish N.Abidova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, N.Muminova, Sh.Taxtayarova, R.Shomaxmudova, U.Fayziyeva F.Qodirova va D.Yakubjanovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida maxsus va inklyuziv ta'limni tashkil etishning axborotli va pedagogik texnologiyalari C.Rubinshteyn, L.Vgotskiy, S.Zikov, S.Morozova, A.Xvatsev, M.Koldina, V.Krayevskiy, M.Maxmutov, kabilarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Xorijiy davlatlarda mustaqil ta'limni amalga oshirish, axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minotini yaratish, o'quvchilarda informatsion-analitik kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq tadqiqot ishlari D.Autor, A.Disterveg, V.Davidov, B.Merlin, D.Elkonin, D.Dorn, C.Frey, M.Osborne, L.Varshavski kabilardan tomonidan amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

---

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/-5841063>)

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>)

**Tadqiqot maqsadi** mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni aniqlashtirish;

talabalarning mustaqil faoliyati raqamlashtirishning tizimli-funksional modelini ishlab chiqish;

talabalarning kognitiv faoliyati, axborot bilan ishlash ko'nikmalari dinamikasini oshirish metodikasi mazmunini takomillashtirish;

talabalarning mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorgarlik darajasini baholash me'zonlarini ishlab chiqish hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obeykti** sifatida mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga ChDPU, ADPI hamda Qo'qon davlat pedagogika institutining 799 nafar talabalari jalb etilgan.

**Tadqiqot predmetini** Ta'limda axborot texnologiyalari fanini o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tahliliy sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mustaqil ta'lim faoliyatini yo'lga qo'yish, bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida ularning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasi turli axborot qurilmalari bilan ishlash, informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llay olish layoqatini axborotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va tanlashni ierarxik tuzilmalar orqali izlash, tayyor ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, informatsion ob'ektlarni yaratish ko'nikmalari bilan gorizont va vertikal integratsiyasini ta'minlash orqali aniqlashtirilgan;

talabalarning mustaqil faoliyati raqamlashtirishning tizimli-funksional modelini kognitiv komponenti kommunikativ, mustaqil faoliyatli, loyihaviy kabi metodik yondashuvlarga ustuvorlik berishga asoslangan kommunikativ trening, rolli o'yinlar, vaziyatni tahlil qilish, loyiha metodi, keys singari interfaol metodlarga tatbiqan fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladigan o'quv-bilish topshiriqlarini tizimli loyihalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kognitiv faoliyati, axborot bilan ishlash ko'nikmalari dinamikasini oshirish metodikasi mazmuni talabalarni raqamli kontentni yaratishga o'rgatish, muammoga yechim topish, komandada ishlash, analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy savodxonlik turi hisoblangan dasturlashtirishni o'rganish maqsadida ta'lim oluvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida loyihalash, yaratish

va o‘z-o‘zida aks ettirishga maqsadli yo‘naltirish mantig‘iga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning mustaqil ta‘limni raqamlashtirish vositasida bo‘lajak logopedlarni inklyuziv ta‘limga tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari individual ta‘lim traektoriyasini maqbul tarzda tanlash, axborot kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali muammoga yechim topish, “avtomatlashtirilgan intellektual jarayonlar” va “informatsion jarayonlarni o‘rganish” elementlarini o‘zida uyg‘unlashtiruvchi informatik fikrlashni kompyuting ta‘limi bilan maqbul adaptivligini ta‘minlash orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

talabalarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini ob‘ektiv aniqlash va avtomatik baholashning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga doir interaktiv “TBBNQ”(talabalar bilimni baholash, nazorat qilish) nomli mobil ilova yaratilgan va mustaqil ishlarini bajarishini baholovchi oline test bot, Web sayt va mobil ilova yaratish dasturi uchun ma‘lumotlar bazasidan guvohnoma olingan (MB 20250248);

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish metodlar ma‘lumotlar bazasini yaratish bo‘yicha dasturiy guvohnoma (DGU 202442662), Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha forum yaratish bo‘yicha dasturiy guvohnomlar olingan (DGU 2024 08549)

“Pedagogik dasturiy vositalar” (№ 537343), “Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi” (№ 142707) o‘quv qo‘llanmalar chop etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** asosiy metodologik tamoyillarga asoslanganligi, unda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalarining adekvatligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati informatikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish tuzilmasi, komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlarining aniqlashtirilganligi, xorijiy tajriba asosida o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini informatikani o‘qitish jarayonida rivojlantirish mazmunining yoritib berilganligi, elektron ta‘lim muhitining o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga doir didaktik imkoniyatlarining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati axborot bilan ishlash kompetensiyasini informatikani o‘qitish jarayonida rivojlantirish algoritmining belgilab berilganligi, maxsus pedagogika yo‘nalishi talabalarini raqamli kontentni yaratishga o‘rgatish, zamonaviy savodxonlik turi hisoblangan dasturlashtirishni o‘rganish maqsadida ta‘lim oluvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida loyihalash, yaratish va o‘z-o‘zida aks ettirishga o‘rgatish yo‘llarining ishlab chiqilganligi, mustaqil faoliyatni rivojlantirishning tizimli-funksional modelini jarayonli-texnologik komponenti,

informatikani o'qitish jarayonida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish metodikasining takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlashga doir tadqiqot natijalari asosida:

mustaqil ta'lim faoliyatini yo'lga qo'yish, bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida ularning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasi turli axborot qurilmalari bilan ishlash, informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llay olish layoqatini axborotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va tanlashni ierarxik tuzilmalar orqali izlash, tayyor ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, informatsion ob'ektlarni yaratish ko'nikmalari bilan gorizontaal va vertikal integratsiyasini ta'minlashga doir takliflardan "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining 2025 yil 9 iyuldagi 258-sonli buyrug'ining nashr № 142707-sonli ruxsatnomasi). Natijada, talabalarda bilimlar bazasi bilan ishlash va mustaqil ta'limni shakllantiriladigan o'quv faoliyati natijalarini loyihalashga xizmat qilgan;

talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini yo'lga qo'yish, bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida ularning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasi turli axborot qurilmalari bilan ishlash, informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llay olish layoqatini axborotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va tanlashni ierarxik tuzilmalar orqali izlash, tayyor ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, informatsion ob'ektlarni yaratish ko'nikmalari bilan gorizontaal va vertikal integratsiyasini ta'minlashga doir takliflar "Pedagogik dasturiy vositalar" o'quv qo'llanmasini mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining 2023 yil dekabrda 537-sonli buyrug'i, 537343-sonli ruxsatnoma). Natijada, talabalarining axborot texnologiyalari va dasturiy vositalar orqali axborot bilan ishlash kompetensiyasini interfaol ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan;

talabalarining kognitiv faoliyati, axborot bilan ishlash ko'nikmalari dinamikasini oshirish metodikasi mazmuni talabalarni raqamli kontentni yaratishga o'rgatish, muammoga yechim topish, komandada ishlash, analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy savodxonlik turi hisoblangan dasturlashtirishni o'rganish maqsadida ta'lim oluvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida loyihalash, yaratish va o'z-o'zida aks ettirishga maqsadli yo'naltirish mantig'iga ustuvorlik berishga doir va tavsiyalardan "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" loyahasini ishlab chiqishda foydalanilgan (TATU Samarqand filiali 2025-yil 17-martdagi ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarda mobil ilova va uning dasturiy majmuasi talabalarining mustaqil ta'limini joriy etish samaradorligini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning matni 127 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari pivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritib berilgan, tadqiqotning ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalar mustaqil faoliyatini tashkil qilish va uni raqamlashtirishning amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalar mustaqil faoliyatini tashkil qilish muammosining amaliy tahlili, bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda mustaqil ta'limni raqamlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari borasida fikr yuritilgan. Ma'lumki bugungi kunda talabalarning mustaqil o'quv faolligini shakllantirishning yagona usuli, ularning mustaqil o'quv faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga “Ta'limda axborot texnologiyalari” o'quv kursining kiritilishi, keyinchalik bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatda AKTdan foydalanishga o'rgatish imkonini beruvchi fanlarni majburiy o'zlashtirish orqali namunali o'quv dasturlarini shakllantirishda o'z aksini topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek, talabalar mustaqil ta'limining tashkiliy va metodik asoslari (N.Sayidahmedov, A.Xodjaboyev, E.Choriyev, F.Qodirova, U.Fayziyeva) hamda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha (U.Begimqulov, G.Abdullayeva) olib borilgan ishlar ishimizning metodologik asoslarini tashkil etadi.

XX asrning 80-90-yillarida olimlarning “mustaqil faoliyat” tushunchasiga va uning tashkil etuvchi tarkibiy qismlariga munosabati, talabaning mustaqil faoliyat sub'ekti sifatidagi rolini ochib berish kabi hodisalar tahlili o'rganish muhim xisoblandi. Uzluksiz ta'lim jarayonida umumta'lim fanlari ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil ish muammosi (G.Saransev, R.Djurayev) bilan bog'lash, xususan maxsus pedagogika ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini yo'lga qo'yish, inklyuziv ta'limga tayyorlash jarayonida ularning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda ham bitiruvchining fan sohasi – ta'limni

raqamlashtirishning asosiy tushunchalarini, turli axborot qurilmalari bilan ishlash, informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni qoʻllay olish layoqatini shakllantirish, taʼlim yutuqlarini nazorat qilish, baholash va monitoring qilish tizimini joriy etishni taqozo etmoqda. Taʼlim oluvchilarni “oʻqitish” jarayoni emas, balki “taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etish” jarayoni kompetentlikni (U.Xodjamqulov, O.Qoʻysinov, J.Usarov) rivojlantirishda ijobiy samara berishi, bunda tahlil qilish va tanlashni ierarxik tuzilmalar orqali izlash, tayyor maʼlumotlar bazasi bilan ishlash talabalarning mustaqil faoliyatida kompetentli yondashuvning muhim ahamiyatga egaligi xususida xulosani beradi.

Talabalarning mustaqil taʼlimini joriy etish maʼlum pedagogik-psixologik sharoitlar hamda texnologik jarayonlardan iborat taʼlim muhitini taqozo etadi. Ilmiy adabiyotlarda “taʼlim muhiti”, “elektron axborot-taʼlim muhiti”, “axborot-taʼlim muhiti”, “axborot makoni” tushunchalari koʻp uchraydi. Axborot-taʼlim muhiti – zaruriy psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, bilish faoliyati va axborot resurslariga kirishning zaruriy taʼminotini taqdim qiluvchi zamonaviy taʼlim texnologiyalari va oʻqitishning dasturiy-metodik vositalari majmuasini taʼminlaydigan, informatsion obʼektlarni yaratish koʻnikmalari bilan gorizonta va vertikal integratsiyasini taʼminlash kabi koʻp yoʻnalishli yaxlit ijtimoiy-psixologik voqelik (V.Krasilnikova, L.Babaxodjayeva) sifatida qaraladi. Shu asosda biz "taʼlim muhiti" taʼlim subʼektlari va uning tevarak-atrofidagilari bilan bevosita oʻzaro taʼsirda boʻladigan makonning bir qismidir, degan xulosaga keldik.

Axborot-taʼlim muhiti yaʼni, taʼlimni raqamlashtirish sharoiti kabi inklyuziv taʼlim va uning sharoiti ham muhim paradigmalardan hisoblanadi. Inklyuziv taʼlim (inglizcha “inclusion - uygʻunlashgan, jalb qilingan”), "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonunda “barcha oʻquvchilar uchun maxsus oʻquv ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda taʼlim olish imkoniyatini teng ravishda taʼminlash" degan belgilangan maʼnolarda<sup>4</sup> ishlatiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun taʼlim shakllarini belgilashda amaliyotdagi jahon tajribalariga tayanilgan. Maʼlumki, Oʻzbekistonda olib borilgan loyihalar, ilmiy tadqiqotlar asosida inklyuziv taʼlimga oid qator qarorlar qabul qilingan. Inklyuziv taʼlimning tizim sifatida ierarxik tuzilishi har bir alohida tarkibiy-mazmunli kognitiv, emotsional, reflektiv, kommunikativ komponentlar, akademik, kasbiy va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalar, diagrammalar, tasvirlar kabi elementlarni oʻz ichiga olgan tizim nuqtai nazaridan koʻrib chiqilishi mumkinligini anglatadi. Shunday qilib, kognitiv komponenti inklyuziv taʼlim, imkoniyati cheklangan bolalar haqida ijtimoiy gʻoyalar, ularning imkoniyatlari haqida ijobiy tasvirlar, inklyuziv taʼlim sharoitlarida idrok etish (kognitiv), inklyuziv taʼlim va uning ishtirokchilari haqida fikrlash doirasida taʼlim jarayonining xususiyatlarini oʻz ichiga oladi. Demak, inklyuziv taʼlim sharoiti taʼlim shaklini tartibga soluvchi meʼyoriy xujjatlar, taʼlim subʼektlari hamda taʼlim kontentlari majmuasidan iborat boʻladi.

Ilmiy, oʻquv-metodik adabiyotlar tahlil etish va yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, talablarning mustaqil faoliyatining Axborot madaniyatini

<sup>4</sup> Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. 2020 yil 23-sentabr.OʻRQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>

rivojlantirish (AKT yordamida ma'lumotlar olish, axborot bilan ishlash, ma'lumotlarni intellektual tahlil etish), Shaxsiy sifatlarini rivojlantirish (aqliy qobiliyatini, qadriyatini yo'nalishlarini, o'z-o'zini kamol toptirish usullari, Elektron ta'lim muhitidagi kasbiy-pedagogik faoliyat (pedagogik tadqiqot usullarini egallash, o'quv jarayonida ETR larini, pedagogik dasturiy vostalarni yaratish va qo'llash, moddellashtirish, loyihalash) kabi vazifalarini aniqladik.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, talaba mustaqil faoliyatiga tayyorgarligini rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik omillar majmuasini aniqlash ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik hodisalar va sabablardir. Mavzuni mustaqil o'zlashtirishda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari ko'rsatilishi lozim. Mustaqil ta'lim keyslarning muvaffaqiyati: boshlang'ich ma'lumotlar bazasining (operativ, statistik, reja va boshqa.) yetarli hajmda ekanligi, keyslarni ishlab chiqish amaliyotidagi mutaxassislar yondashuvi va muammoning yechimida tahlillar yoki texnologiyalarni qo'llay olish layoqatini axborotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va tanlashni ierarxik tuzilmshtirish holatining mavjudligi kabi asosiy mezonlarga mos kelishiga bog'liq. Bu mezonlar maxsus pedagogika yo'nalishi talabalarining kognitivligini mustaqil ta'lim tamoyillariga tayangan holda mobil ilovalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy komponenti hisoblanadi.

Shunday qilib, mustaqil ta'limni raqamlashtirish vositasida bo'lajak logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlash metodikasini talabalarining kognitiv va AKT savodxonligi ya'ni, axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish tuzilmasi turli axborot qurilmalari bilan ishlash, informatsion texnologiyalarni qo'llay olish hamda bo'lajak logopedlarning kasbiy faoliyati o'zgarishlarini, darajasini baholashning dinamik taxlillari asosida takomillashtirish mumkin, degan xulosaga kelish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarni inkluziv ta'limga tayyorlashning rivojlanuvchi pedagogik texnologiyalari**" deb nomlangan bo'lib, unda mustaqil ta'limni raqamlashtirish orqali talabalarni inklyuziv tayyorlashning didaktik modeli, maxsus pedagogika yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limga tayyorlashning hamkorlik texnologiyalari hamda ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning interfaol metodlari xususida fikr yuritiladi.

Mustaqil ta'limni raqamlashtirish orqali talabalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning didaktik modelini ishlab chiqish hozirgi davrdagi talaba shaxsi tushunchasida zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va boshqaruv jarayonlarining zamonaviylashishi, inklyuziv ta'lim muhitidagi jarayonlarni loyihalash zarurati bilan asoslanadi.


Modellashtirishning asosiy predmeti mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari, modelga qo'yilgan maqsadlarni tashxislashgina emas, qoidaga ko'ra, deklarativ hamda ta'limiy faoliyat borishi va natijasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy mutaxassis o'zlashtirilgan bilimlarni innovatsion texnologiyalarni

transformatsiyalashni, bilimlarning global manbaiga qanday kirishni bilishi, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini egallagan bo'lishi (V.D.Shadrikov) zarur. Bo'lajak maxsus pedagogning mustaqil faoliyati raqamlashtirishning tizimli-funksional modelini kommunikativ va loyihaviy faoliyatli kabi metodik yondashuvlarga tayyorlaydigan, ta'lim subektlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ta'lim natijalariga erishish qobiliyati va tayyorligini belgilovchi ilmiy, kasbiy va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalar tizimi bilan ifodalanadi. Uning inklyuziv-metodik kompetenligi (A.Samsonova), o'qituvchilar kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik darajalarini kommunikativ trening, rolli o'yinlar, vaziyatni tahlil qilish hamda fanlararo integratsiyani ta'minlash nazariyalariga asoslanadi (M.Maxmudova). Fikrimizcha mustaqil ta'limini raqamlashtirish orqali kasbiy faoliyatning strategik maqsadini aniq ifodalash va uni ta'minlashga xizmat qiladigan o'quv-bilish topshiriqlarini tizimli loyihalashga sharoit yaratish va shu bilan vazifalarni shakllantirishga yordam beradi. Inklyuziv ta'limda mustaqil ta'limni raqamlashtirish orqali mutaxassisning kasbiy mahorati - bu bolalarning o'z-o'zini idrok etishi, eshitishi va tinglashi, hamkasblar bilan muloqot qilishda, jamoada ishlashda, nostandart vaziyatlarda yechim topa olishi hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning hamkorlik texnologiyalari maxsus ta'limning har bir alohida holatda ota-onalarning xohishi, bolaning qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib individual adaptatsiyalashtirilgan ta'lim dasturi asosida tashkil qilinishida muhim rol o'ynaydi.


Bo'lajak maxsus pedagoglarning inklyuziv ta'limga tayyorligini ta'minlash maqsadida ularning kasbiy va metodik tayyorligi motivatsion, inklyuziv ta'lim sohasidagi nazariy va metodik bilimlarning yig'indisini mujassamlashtiradi. Mutaxassis mustaqil ta'limini raqamlashtirish orqali metodik yondashuvlarga ustuvorlik berishga asoslangan kommunikativ trening, rolli o'yinlar, vaziyatni tahlil qilish, loyiha metodi, keys singari interfaol metodlar asosida o'z kasbiy faoliyatining strategik maqsadini ifodalaydi. Bu maqsadni aniq sharoitlarda ko'ra oladi va shu bilan vazifalarni shakllantiradi deb taxmin qiladi. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, u o'zining barcha harakatlarini konsepsiya bo'yicha emas, balki ongli ravishda refleksiylaydi va o'z imkoniyatlarini rivojlantiradi: pedagog o'zining imkoniyatlarini biladi va bu haqiqat uning o'zini hurmat qilish mavzusidir.

O'qituvchi uchun iqtidorli talabalar va rivojlanishda muammosi bor o'quvchilari bilan ishlash, maktab tomonidan inklyuziv ta'lim dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirish, fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladigan o'quv-bilish topshiriqlarini tizimli loyihalash kabilarni bilish muhimdir. Taklif etilgan tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar majmuini amalga oshirish mazmunan ta'lim natijalariga erishishni hamda tashkiliy amaliy aspektlarida ham tizimli ishlashni ta'minlaydi. Bu o'z navbatida kasbiy pedagogik ta'limning maqsadli yo'nalishlariga to'g'ri keladi va bo'lajak mutaxassislarning inklyuziv ta'limga shayligining didaktik modelini ko'rishimiz mumkin (1-rasm). Ta'lim klasteri sharoitida pedagoglarning inklyuziv ta'limga tayyorligini ta'minlashga mo'ljallangan texnologiyalar pedagoglarning inklyuziv ta'limga oid tajribasini bosqichma-bosqich orttirish, tabaqalashtirish, integratsiyalashtirish va individuallashtirishni ta'minlaydi.



1-rasm. Mustaqil ta'limni raqamlashtirish orqali talabalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning didaktik modeli

Talabalarning kognitiv faoliyati, axborot bilan ishlash ko'nikmalari dinamikasini oshirish metodikasi mazmuni talabalarni raqamli kontentni yaratishga o'rgatish hamda inklyuziv ta'lim jarayonini AKT yordamida amalga oshirish korreksion-dinamik ko'nikmalarini qamrab oluvchi texnik-dizayn, ta'lim oluvchining shaxsiy sifatlarini mujassamlovchi reflektiv tayyorliklaridan iborat komponentni o'z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. Bo‘lajak maxsus pedagoqlarning inklyuziv ta‘limga tayyorligi komponentlari

Pedagogik texnologiyaga o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasi (V.Bespalko), avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo‘lgan muammoga yechim topish, komandada ishlash, analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy savodxonlik turi hisoblangan tartibli amallar tizimi (V.M.Monaxov), o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida talabalarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldindan belgilangan shaxs sifatlarining intensiv shakllantirish jarayoni (N.Saydahmedov, A.Ochilov)<sup>5</sup> kabi sifatlar beriladi. Qator adabiyotlarda berilgan fikriga xam qo‘shilgan holda **pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va inson tafakkuri asosida uyg‘unlashgan pedagogik jarayondir**, degan fikrga kelish mumkin. Demak, pedagogik texnologiyani o‘qituvchining shaxsni rivojlantirishga, dasturlashtirishni o‘rganish maqsadida ta‘lim oluvchilarni raqamli texnologiyalar yordamida loyihalashga qaratilgan va ma’lum ketma-ketlikdagi faoliyati sifatida qarash mumkin.


Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan hamkorlik texnologiyalar qatoriga modulli o‘qitish, muammoli o‘qitish, dizayn fikrlash, masofaviy ta‘lim, aralash ta‘lim, “Skarabey” kabi texnologiyalarni kiritish mumkin. Ular qo‘llanilishi va maqsadiga ko‘ra, farqli bo‘lib, masalan, modulli o‘qitish texnologiyasi majmuli (o‘zaro funksional aloqadorlikdagi bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar birikmasi) yondoshuvni ifodalaydi. Uning mazmunida jarayonni loyihalash algoritmi, fan mazmuniga ko‘ra ilmiy, nazariy va o‘quv fani sifatida bir butun deb qarab, katta modullarga ajratish uning maqsadlarini aniqlash, vaqt taqsimoti, tayanch tushunchalar va nazorat savollarini belgilash, qo‘llaniladigan axborot kommunikatsiya texnologiyalar, ta‘lim kontentlari va ulardan foydalanish ketma-ketligini belgilash kabilar aks etadi.

Talabalarining tajribasidan foydalanish, reflektiv kuzatishlari, faol ijodiy izlanish va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlarini oshirishda turli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda mavzu va kundalik faoliyat o‘rtasidagi aloqadorlik, savolga chuqurroq munosabat, mavzu bo‘yicha talabalarda yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratiladi.

Masofaviy ta‘lim texnologiyalarida axborot texnologiyalari,

<sup>5</sup> O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafaev, H.J.Ro‘ziev Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari /Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013 y., 200 bet

telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimiga asoslansa, aralash ta'lim texnologiyalari an'anaviy, masofaviy va mustaqil ta'lim faoliyatlarining uyg'unligidagi ta'minlashga qartilgan innovatsion yondashuvlar sifatida ta'lim jarayoniga kirib bormoqda. Aralash ta'lim jarayonida talabalarning masofaviy va mustaqil faoliyati ustuvor hisoblanadi. Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning interfaol metodlari ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki, shaxsiy rivojlanishi hamda o'quv jarayoni samaradorligi va ta'limning sifatini yaxshilashga ko'maklashadi(3-rasm).



3-rasm. Aralash ta'lim texnologiyasida mustaqil faoliyat mexanizmi

Mustaqil ta'limni raqamlashtirish asosida ta'lim, ishlab chiqarish munosabatlari shuningdek, muammoli o'qitish metodi (Problem-Based Learning, PBL) talabalarni amaliy muammolarni hal qilishga yordam berishga qaratilgan bo'lib, hayotiy muammolarni tadqiq qilish va ularga yechim topishga yo'naltirilgan. Xususan, inklyuziv ta'limga oid muammolarni hal qilishda tashkiliy va psixo-pedagogik muammolarni aniqlash maqsadida guruhlar o'rtasida diskussiya tashkil qilish qator olimlar tomonidan tadqiqotlarga tortilgan (I.Lerner). Pedagogik monitoring metodi ta'lim jarayonini tahlil qilish va baholash faoliyati bo'lib, ma'lum muammolarini aniqlash orqali o'quvchiga individual yordam ko'rsatishga qaratilgan. Loyihali o'qitish (Project-Based Learning) esa, talabalarga aniq bir mavzuda ishlab chiqarish va yordam berishga yo'naltirilgan metod hisoblanadi. Logopedlarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda, proekt asosida o'qitish metodi talabalarga raqamli texnologiyalar yordamida loyihalash, yaratish va o'z-o'zida aks ettirishga maqsadli yo'naltirish va ularni amalga oshirish mantig'iga ustuvorlik beradi.

Talabalarni individual faoliyatiga yo'naltirish qaratilgan zamonaviy texnologiyalar shaxsning samarali rivojlanishini ta'minlashga, ularning AKT savodxonligini oshirishga va kognitiv rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Ushbu metodikalarning har biri talabalarning ta'lim olishga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi, ularni mustaqil fikrlashga va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishga

undaydi. Logopedikada bu usullar asosan logopedik faoliyatda, ya'ni jismoniy, ruhiy va so'zlash qobiliyati past bolalarga yordam berishda muhim ahamiyatga ega.

Logopedlar uchun dinamik tahlil, ularning ish faoliyatidagi o'zgarishlarni va professional rivojlanish jarayonlarini baholash, o'qitish metodlarini samarali ishlashga muvofiqlashtirish uchun muhimdir. Bu tahlil natijalari orasida bolalar bilan olib boriladigan ishlarning samaradorligi, ularning nutqidagi o'zgarishlar va pedagogik malaka darajasi nazarda tutilishi kerak. Dinamik tahlil ilmiy tadqiqotlarda, professional faoliyatni baholashda va u orqali individual ishlash samaradorligini aniqlashga yordam beradi (V.Zinchenko).

